

ALOE O'SIMLIGINING DORIVORLIK XUSUSIYATLARI

Ikromova Yulduzoy Erkin qizi

o`qituvchi

Qurbonova Umida Arslon qizi

3 – bosqich talabasi

Quziyeva Zulayxo Akmal qizi.

3 – bosqich talabasi

Annotatsiya: *Respublikada so`nggi yillarda dorivor o`simliklarni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, dorivor o`simliklar yetishtiriladigan plantatsiyalar tashkil etish va ularni qayta ishlash ishlari keng ko`lamda olib borilepti. Shunday dorivor o`simliklardan biri aloe, u nafaqat dorivor o`simlik, balki ishtaha ochuvchi o`simlik ekanligi, bosh og`rig`i hamda tuberkulyozda ham o`simlik ekstraktlari foyda berishi aniqlangan.*

Kalit so`zlar: *Aloe, organik, kislota, flavonoid, foliy, glikoprotein, karotin, antibiotik, shifobaxsh, aloe, vera.*

Respublikada yaqin vaqtlar ichida dorivor o`simliklarni muhofaza qilish ularni ko`paytirish, ko`paytirish uchun plantatsiyalar tashkil etish, dorivor o`simliklar resurrlaridan oqilona foydalanish, dorivor o`simliklardan tibbiyotda va xalq tabobatida foydalanishni yo`lga qo`yish sohasida ishlar amalga oshirilmoqda.

Mahalliy floraga mansub 4,3 mingdan ortiq o`simliklarning 700 ta turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 ta turi ilmiy tabobatda foydalanish uchun ro`yxatga olingan. Aloe o`simligi ham shu turlar qatoriga kiradi.

Aloe — Loladoshlar (Liliaceae) oilasiga mansub doim yashil, ko`p yillik o`tlar (ba`zan daraxtlar) turkumi. Tropik va subtropik mintaqalarda o`sadi. Qariyb 180 turi ma`lum. Aloe turlari gultuvakda ham o`stiriladi; ularning bargi semiz, sersuv, qalin va tikanli. Asli vatani Afrika. Bir necha asrlar oldin yurtimizga kirib kelgan. Hozirgi kunda vatanimizda aloening turlari ortib bormoqda. Xonadonlarda manzarali va dorivor o`simlik sifatida o`stirilib kelinmoqda.

Aloe o`simligi dorivor o`simlik sifatida xalq tabobatida keng qo`llaniladi. Uning bargi va shirasidan turli kasalliklarni davolashda ishlatiladi.

O`simlik barglarida: vitaminlar, shu bilan bir qatorda C, A, E, B guruh vitaminlari (B1, B6, B12), polisaxaridlar, aminokislotalar, efirlar, karotin, glikoprotein, foliy kislotasi, organik kislotalar, mineral, tuzlar, flavonoidlar, Ca, Mg, Zn, K, Cu elementlari mavjud. O`simlik barglaridagi allantoin moddasi biriktiruvchi yallig`lanishga qarshi va mahalliy og`riqsizlantirish ta`siriga ega. Aloe sharbatidan kasalliklarni davolashda foydalanish uzoq o`tmishga borib taqaladi. Qadimda tabiblar va Misr ruhoniylari shifobaxsh ichimliklar tayyorlash jarayonida aloe sharbatidan foydalangan va natijada ko`plab xastalarni kasalliklardan sog`ayishiga olib kelgan. Hozirgi kunda tibbiyotda ham aloening foydalilik

xususiyatlari o'rganib chiqilib, undan dori darmonlar tayyorlashda keng foydalanib kelinmoqda. O'simlikning Aloe Vera turida shifobaxshlik xususiyatlari ko'proq bo'lib undan dorivor sifatida foylanish uchun o'simlik kamida 3yoshda bo'lmog'i lozim. Aloening yoshi qancha katta bo'lsa, dorivorligi shuncha yuqori bo'ladi. Bakteritsid, ya'ni bakteriyalarni nobud qilish xossasiga ega ekani tufayli sharbatidan streptokokk, stafilokokk va turli xil infeksiyalarga qarshi kurashda yaxshi samara beradi. O'simlik to'qimalarni yangilanishini tezlashtirish xususiyatiga ega. Shu sababli turli yiringli yaralarni davolashda, jarohatlarni va nurlanishni davolashda qo'llaniladi. Aloe sharbati tarkibida shunday moddalar mavjudki, difteriya va dizenteriya tayoqchalariga faol ravishda kurashadi. Olimlar o'simlik sharbatidan sil kasalligi va teri kasalliklarini davolashda yaxshi natija beradigan antibiotiklarni ajratib olishdi. Aloe sharbatidan ko'z kasalliklarini, jumladan miopiya, ko'z shishasimon tanasining xiralashishi, konyuktivit, kataraktaning oldini olishda tomchi sifatida foylaniladi. Aloe turli xil kasalliklarni, bosh og'rig'i, qon kasalliklari, nevrozlarni, bronchial astmani davolashda qo'llaniladi. Oshqozon ichak kasalliklarini davolashda aloe sharbatidan keng foydalanilmoqda. Ovqatni hazm bo'lishini yengillashtirishda, ichak peristaltikasini oshirishda, safro ajralishini yaxshilashda va organizmga kuchaytiruvchi ta'sir berishda yaxshi samara beradi.



Aloe turlari.

Ginekologik kasalliklarda, jumladan bachadon eroziyasini davolashda, turli ginekologik yallig'lanishga qarshi aloe bargi va sharbatidan foydalaniladi. Aloe o'simligi shifobaxsh bo'lishi bilan bir qatorda ishtaha ochuvchi ta'sirga ham ega. Aloe sharbatidan ichimlik ham tayyorlanadi. Bu ichimlik tabiiy antibakterial, ya'ni bakteriyalarga qarshi vosita hisoblanadi. Tomoqni yuvishda va burunga tomizishda foydalaniladi. Tanadan turli xavfli bakteriyalarni chiqarishda yordam beradi. Suyuq moddalar bilan zaharlanganda, toksinlarni tanadan chiqarib yuborishda, oshqozon ichak holatini, metabolizmini, ya'ni moddalar almashinuvini yaxshilashda foydalaniladi. Kosmetika sanoatida aloe barglaridan va

sharbatidan qo'l, yuz va tana terisi uchun turli xildagi kremlar va gellar ishlab chiqarilmoqda va o'z natijasini bermoqda.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak bugungi kunda sanoatda ishlab chiqarilayotgan va biz ko'p foydalanib kelayotgan kimyoviy dori moddalari organizm uchun foydali va birmuncha zararli ta'sirlarga ham ega. Tabiiy dorivor o'simliklardan me'yoriga ahamiyat berib foydalanish organizm uchun zararli ta'sirlarni keltirib chiqarmaydi va ta'sir doirasi keng hisoblanadi. Bu o'simliklardan foydalanish iqtisodiy jihatdan ham katta mablag'ni talab qilmaydi. Shu sababdan ham hozirgi kunda dorivor o'simliklarni yetishtirish, ulardan tibbiyotda va xalq tabobatida foydalanishga faol yo'lga qo'yish, noyob dorivor o'simliklarni turlarini saqlab qolish va ko'paytirish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Акопов И.Е. Важнейшие отечественные лекарственные растения и их применение. Т. Медицина. 1990. 440-с.
2. М.А. Jo'rayeva, Dorivor o'simliklar atlas (o'quv qo'llanma)-Toshkent. Noshir nashriyoti-2019. 5-6bet.
3. Internet. www.google.uz, www.ziyonet.uz